

## VI Bo'lim. Bir-birini kuzatadi fasllar

### 1-Mavzu: Har faslning o'z ziynati bor

**Dars maqsadi:**

- Po'lat Mo'minning "Har fasl-asl" she'ri bilan tanishtirish;
- "Bir-birini kuzatadi fasllar" bo'limi haqida ma'lumot berish;
- og'zaki nutqni va lug'at boyligini oshirish.

**Tayanch so'zlar:** fasllar, har faslning ziynati, oylar.

**Didaktik materiallar:** mavzuga oid rasmlar.

### Darsning borishi:

#### I. Darsning kirish qismi. (*5 daqiqa*)

Darsni tashkillashtirib olish.

**Faollashtiruvchi mashq.**

**"1+so'z"** mashqi.

"Uz" so'zining boshiga bitta harf qo'shib yangi so'zlar hosil qiling.

#### II. O'tilganlarni takrorlash. (*7 daqiqa*)

"Salomatlik-tuman boylik" mavzusida kichik matn yarating.

#### III. Darsning asosiy qismi. (*28 daqiqa*)

**Amaliy topshiriq.**

**"Tushunchani aniqla"** mashqi.

O'qituvchi doskaga qor parchasi, boychechak, quyosh, sarg'aygan barg rasmlarini osib qo'yadi.

- Berilgan rasmlar nimani bildiradi? Ularni birlashtiruvchi tushunchani aniqlang.

Muhokama uchun quyidagi savollar tavsiya etiladi:

1. Rasmlardan qanday so'zlar hosil bo'ldi?
2. Partadoshingizda hosil bo'lgan so'zlar bilan solishtiring.

**Mavzuni tushuntirish.**

Rasm asosida suhbat uyushtiriladi.

1. Yil fasllarini sanab bering. Har faslning oylarini ayting.

2. O'ylab ko'ring, har faslning qanday ziynati bor?

3. Ular bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?

4. Har fasl -asl deganda nimani tushunasiz?

5. Po'lat Mo'minning qaysi asarlarini bilasiz?

O'quvchilarning fikri tinglanadi, umumlashtiriladi.

O'quvchilarga she'r janri haqida ma'lumot beriladi.

### ***She'r nima?***

She'r ohang jihatdan ma'lum bir tartibga solingan, his-tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli nutqdir.

**Qofiya** – misralarning oxirida keladigan ohangdosh so'zlar.

### **Matn ustida ishslash.**

Po'lat Mo'minning "Har fasl-asl" she'ri o'quvchilarga zanjir usulida o'qitiladi. She'r matni yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. She'rni o'qish jarayonida qanday manzara jonlandi?

2. Yil fasllari haqida nimalar bilib oldingiz?

3. Nima uchun shoir "Har fasl-o'zicha asl" – deb ta'riflayapti?

She'rdagi notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.

**asl** – haqiqiy

**fazilat** – ijobiy xislat, afzallik.

**soz** – yaxshi, tuzuk, durust, qulay.

**mo'l** – ko'p, serob, to'kin.

**"Jo'r bo'laman"** mashqi. She'rni jo'r bo'lib qatorlarga ifodali o'qitiladi.

### **Mashq daftari bilan ishslash.**

She'rning birinchi to'rtligi yoddan yoziladi.

O'quvchilar she'rning birinchi to'rtligini bir necha bor o'qishadi. So'ng yoddan jor bo'lib aytishadi. Bir nechta o'quvchidan ham so'raladi. Keyin o'quvchilar darsliklarini yopib, to'rtlikni yoddan yozishadi. Yozib bo'lishgandan keyin, darslikni ochib tekshirishadi. (*O'quvchilarga qulay bo'lishi uchun o'qituvchi doskaga to'rtlikdagi so'zlarning bosh harfini va tinish belgilarini yozishi mumkin.*)

### ***"Qofiyadoshini top"* mashqi.**

She'rdagi qofiyadosh so'zlarni juftlab yoziladi: *fasl-asl, teng-keng, oy-soy, asta-havasda, bahor-bor, yoz-soz, chog'da- bog'da...*

Qofiyadosh so'zlar bilan gaplar tuziladi.

### **So'z o'yini.**

Har bir qatorda so'zning bitta harfni o'zgartirib yangi so'zlar hosil qilinadi. (Qolgan ustunlar uy vazifasiga berilishi mumkin)

yoz	kuz	qish	soy	bog'
soz	muz	qosh		
son	tuz	tosh		
kon	tuk	tom		

O'quvchilar yozgan so'zlarini o'qib berishadi.

**Darslikdagi topshiriq bajariladi.**

**"*Bir tushunchaga besh izoh*" mashqi.**

*O'quvchilar to'rt kishilik kichik guruhlarga bo'linadi. Har bir guruhga A4 formatdagi qo'l izi tushirilagan va kaftiga fasl nomi yozilgan varaq tarqatiladi. O'quvchilar o'ziga ajratilgan faslga besh izohni barmoqchalarga yozadi. Yozib bo'lgan guruh vakillari chiqib o'qib berishadi va varag'ini doskaga yopishtirishadi.*

### **IV. Darsni yakunlash va baholash. (3 daqiqa)**

- Bugun darsda nimalarni bilib oldik?
- Darsda nimalarni bajardik?

### **V. Uyga vazifa. (2 daqiqa)**

She'rni yod oling. O'zingiz tug'ilgan faslning rasmini chizing.

## **2-Mavzu: Fasllar nega almashadi?**

### **Dars maqsadi:**

- "Fasllar nega almashadi?" matnining mazmuni bilan tanishtirish;
- Fasllar almashinishi haqida ma'lumot berish;
- Tevarak-atrofdagi olamga qiziqish va u haqida ko'proq bilishga intilishini oshirish;
- Tinglab tushunish malakasini shakllantirish.

**Tayanch so'zlar:** fasllar, Quyosh, Yerning bir tomonga oggan holatda aylanishi.

**Didaktik materiallar:** globus, audiomatn.